




journal homepage:
<https://kelajakbunyodkori.uz/>

ARAB AND PERSIAN IN THEIR LANGUAGES

Xurshidaxon Abdusalomova

3rd-year student of the Arabic-English group

"Arab Studies" Faculty

Tashkent State University of Oriental Studies

E-mail: bibioisha29@gmail.com

A. Rustamov

Senior Lecturer, "Arab Studies" Faculty

Tashkent State University of Oriental Studies

Tashkent, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: Izofa, muzof, muzofi ilayhi, belonging to time and place, subject-object, definitional relationship, similarity, word combination, Izofa chain.

Abstract: This article analyzes the specific features of the grammatical category of "Izofa" in Arabic and Persian languages, as well as the similarities and differences, through several examples.

Received: 28.04.25

Accepted: 10.05.25

Published: 14.05.25

ARAB VA FORS TILLARIDA IZOFA

Xurshidaxon Abdusalomova

3-kurs arab-ingliz guruhi talabasi

"Arabshunoslik" oliy maktabi

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti

E-mail: bibioisha29@gmail.com

A. Rustamov

katta o'qituvchisi

"Arabshunoslik" oliy maktabi

TDSHU

Toshkent, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit soʻzlar: izofa, muzof, muzofi ilayhi, zamon va makonga oidlik, qaratqich-qaralmish, aniqlovchi-aniqlanish, oʻxshashlik, soʻz birikmasi, izofa zanjiri.

Annotatsiya: Ushbu maqolada izofa grammatik kategoriyasi arab va fors tillaridagi oʻziga xos xususiyatlari, oʻxshash va farqli tomonlari yuzasidan bir qancha misollar orqali tahlil qilingan.

АРАБСКИЙ И ПЕРСИДСКИЙ НА ИХ ЯЗЫКАХ

Хуридаҳон Абдусаломова

Студент 3 курса арабско-английской группы

Факультет "Арабоведения"

Ташкентский государственный университет востоковедения

E-mail: bibioisha29@gmail.com

А. Рустамов

Старший преподаватель, факультет "Арабоведения"

Ташкентский государственный университет востоковедения

Ташкент, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: Изофа, музоф, музофи илайхи, принадлежность к времени и месту, субъект-объект, определение-определяемое, сходство, словосочетание, изофа-цепочка.

Аннотация: В данной статье анализируются особенности грамматической категории "Изофа" в арабском и персидском языках, а также сходства и различия через несколько примеров.

Egalik munosabatlarini ifodalashda koʻp qoʻllaniladigan kelishik qaratqich kelishigidir. Qaratqichli birikma bevosita qaratqich kelishigi orqali hosil qilinib, ikki qismdan iborat boʻladi: qaratqich va qaralmish. Bu kelishik oʻzbek tilida -ning qoʻshimchasi bilan shakllanadi. Masalan, kitobning varagʻi. Ushbu birikmada qaratqich kelishigi kitob soʻziga qoʻshilgani sabab soʻz birikmadagi tobe qism (kitobning) qaratqich, hokim qism (varagʻi) esa qaralmish deb ataladi.

Arab va fors tillarida qaratqichli birikma egalik maʼnosini ifodalovchi va keng qoʻllaniluvchi morfologik-sintaktik tushuncha hisoblanadi. Bu tillarda egalik maʼnosini ifodalovchi birikmalarning bari qaratqichli birikmalar hisoblanishi, morfologik-sintaktik usul orqali ikki yoki undan ortiq soʻzdan iborat birikmalar yasalishi va bu birikmalarning keng qoʻllanishi arab va fors tillari grammatikasida qaratqichli birikmalarning keng oʻrganilishiga sabab boʻladi. Arab tili somiy tillar oilasi, fors tili esa hind-yevropa tillari oilasidagi eroniy tillar guruhining janubiy-gʻarbiy tarmogʻiga mansub til boʻlsa ham, tarixga nazar soladigan boʻlsak, oʻrta asrlarda arab istilosi ostida boʻlgan fors davlatlari tiliga taʼsir koʻrsatgani sababli bu ikki til ayrim jihatlari bilan bir-biriga oʻxshashdir.

Qaratqichli birikma arab va fors tilida إضافة “izofa” deb nomlanadi. Izofa ikki qismdan iborat: “muzof” (مضاف) va “muzof ilayhi” (مضاف إليه), ya’ni qaratqich va qaralmish. Izofa — arab, fors va bir qancha turkiy tillar grammatikasida aniqlanmish bilan aniqlovchi munosabati bo‘lib, urg‘usiz bog‘lovchi element orqali ifodalanadi.

Arab nahvshunos olimlaridan Mustafo G‘alayoniy: “Izofa ikki so‘z o‘rtasidagi munosabat bo‘lib, ikkinchi so‘z doim qaratqich kelishigida keladi”, - deb aytadi. Ahmad al-Hashimiy: “Izofa bir otning boshqasi bilan egalik munosabati bo‘lib, boshqasi doim qaratqich kelishigida kelishidir”, - deb yozadi. Abdurahmon ibn Muhammad al-Anbariy: “Izofa ikki ma’noli bo‘ladi: biri ل (ning, qarashlilik), ikkinchisi من (oidlik) dir. غلام زيد - Zaydning ishchisi ثوب خز (ipakdan ishlangan kiyim) ipak kiyim”, - deya tushuntiradi.

Fors tili grammatikasidagi izofiy birikmada ham qaratqich-qaralmish munosabati, ham aniqlovchi-aniqlanmish aloqasi ifodalanadi. Bunda so‘z tartibi quyidagicha bo‘ladi: birinchi o‘rinda qaralmish yoki aniqlanmish kelib, so‘ng urg‘u olmagan morfologik ko‘rsatgich “e” qo‘shimchasi qo‘shiladi, undan keyin qaratqich yoki aniqlovchi keladi. Qaralmish va aniqlanmish oxiriga qo‘shilgan “e” izofa deyiladi. Aniqlovchili va qaratqichli birikma butun bir ohang bilan talaffuz etiladi, ya’ni aniqlanmish bilan aniqlovchi o‘rtasida pauza to‘xtash bo‘lmaydi. Fors tilida gap va so‘z birikmalarida so‘z tartibi qat’iydir. Izofiy birikmada so‘z tartibi o‘zbek tiliga qarama-qarshi, arab tili bilan esa bir xildir. Agar o‘zbek tilida avval aniqlovchi so‘ng aniqlanmish kelsa, fors tilida esa aksincha, avval aniqlanmish so‘ng aniqlovchi keladi. Masalan,

Arab tili	كتاب الطالب (<i>Kitaabu at-toolibi</i>)	ساعة ذهب (<i>saa’tu zahabin</i>)
Fors tili	كتاب دانشجو (<i>Ketobe doneshju</i>)	ساعت طلا (<i>soate telo</i>)
O‘zbek tili	talabanning kitobi	tilla soat

Arab va fors tilida izofa birikmalari oddiy va murakkab turlarga bo‘linadi:

1. Oddiy izofa birikmasi ikki so‘zdan iborat bo‘ladi:
2. Murakkab izofa birikmasi uch, to‘rt va undan ortiq so‘zlarning birikuvidan hosil bo‘ladi.

Arab tilida muzof va muzof ilayhi bo‘lib kelgan ikki ot o‘rtasida qaratqich kelishigi bu ikki so‘zni sintaktik bog‘lashga xizmat qiladi. Qaratqichli birikma, ya’ni izofaning 4 turi mavjud. Bu bo‘linish qanday ma’no ifodalanishiga ko‘ra sodir bo‘ladi. Bular: ظرفية (tegishlilik), بيانية (oidlik), لامية (makon va paytga oidlik), تشبيهية (o‘xshashlik). Yuqoridagi ma’nolardan tegishlilik, oidlik hamda makon va paytga oidlik ma’nolari fors tilida ham izofa yordamida ifodalanadi. Masalan,

لامية - tegishlilik. Bu izofa turi tegishlilik, egalik ma’nosini bildiradi. Bunday nomlanishiga sabab ل (niki) ko‘makchisi bilan ma’nosi bir bo‘lganligidir. Masalan, هذا حصان علي (bu Alining otidir) - ل (bu ot Alinikidir). Birinchi gapda izofa holatida, ikkinchi gapda izofa o‘rnida

ل ko'makchisi bilan izofa vazifasida bo'lgani uchun izofasiz ifodalandi. Fors tilida ham izofa qarashlilik ma'nosini ifodalaydi, masalan, كيف برادر (kife barodar) — ukaning portfeli.

بيانية - oidlik. Izofaning bu turi bir jism ikkinchi bir jismdan ishlanganligi, bir jism ikkinchi bir jismning tarkibiy qismi ekanligini ifodalaydi. Masalan, هذا باب خشب Bu yog'och(dan ishlangan) eshikdir. Fors tilida ham izofa oidlik ma'nosini ifodalaydi, masalan, ساعته طلا (soate telo) – tilla soat.

ظرفية - makon va zamonga oidlikni ifodalovchi izofaning bu turi في (ichida) ko'makchisi bildirgan ma'no bilan bir xil vazifani, ma'noni ifodalaydi. Masalan, سهر الليل Tundagi bedorlik (tun bedorligi). صديق الأيام الغابرة Og'ir kunlardagi do'st (og'ir kunlar do'sti). Fors tilida ham makon va zamon tushunchasi izofa bilan ham ifodalanadi, masalan, وقت نماز (vaqt-e namoz) — namoz vaqti.

Ikki tilda joy, gazeta, kitob nomlarini ifodalovchi atoqli otlar ham izofa bo'lishi mumkin:

Arab tili	مدينة تهران (madinatu tehrona)	جريدة أوزبكستان (jaridatu uzbekistana)
Fors tili	شهر تهران (shahr-e Tehron)	رژمانه ی ازبکستان (ruznome-ye o'zbakeston)
O'zbek tili	Tehron shahri	"O'zbekiston" gazetasi

Arab va fors tillaridagi izofada bir-birida uchramaydigan xususiyatlar quyidagi ma'nolarni ifodalashidir:

تشبيهية - arab tilida o'xshashlik ma'nosini ifodalovchi izofaning bu turi ك kabi (ko'makchisi bajargan vazifani bajaradi. Masalan, انتثر لؤلؤ الدمع على ورد الحدود Gul yanglig' orazda marvarid kabi yoshlar tarqaldi. (Orazning guli ustida ko'z yoshning marvaridi tarqaldi. Bu so'zma-so'z tarjima. Shunday tarjima qilinsa, ma'noga putur yetishi, tarjima g'aliz chiqishi turgan gap. Hozirda ham ko'p tarjimalardagi g'alizlik ayni shu kabi grammatik nozik jihatlarni bilmaslikda, chog'ishtirma arab tili grammatikasini yaxshi tushunmaslik sabab kelib chiqmoqda).

Fors tilida qo'llanadigan atributiv munosabatlar orasida eng keng tarqalgan turi — aniqlovchili munosabatlar, bunda ikkinchi so'z ob'ekt, hodisa yoki shaxsning sifatini ifodalaydi, arab tilida esa izofa bu kabi grammatik xususiyatga ega emas.

دختر خوشگل (do'xtar-e xoshgel) — chiroyli qiz;

جنگل کاج (jungal-e koj) — qarag'ay o'rmoni;

کتاب دانشجوی دانشگاه (ketob-e doneshju-ye doneshgoh) – universitet talabasining kitobi.

Murakkab izofa birikmalari izofa zanjiri deb ham ataladi. Izofa birikmasi o'ziga xos semantik-grammatik aloqalar bilan farqlanadi va attributiv birikma sifatida ishlatiladi. U ko'pincha nomlangan asarlar, kitoblar va maqolalarning nomlanishida hamda muloqot kontekstida aniqlanadi. Fors tilida ham izofa birikmasi bilan tegishlilik, miqdor, joylashuv va vaqt munosabatlari shakllanadi. Masalan,

عشق مادر (eshq-e modar) — onaga bo'lgan muhabbat yoki onadan keladigan muhabbat.

Umumiy xulosa qiladigan bo'lsak, izofa birikmalari arab va fors tilida so'zlar orasidagi murakkab va xilma-xil munosabatlarni ifodalash uchun juda muhim vosita, uning asosiy vazifasi so'zlarni yagona grammatik birlikka — birikmaga birlashtirishdir. Ikki til turli oilalarga mansub bo'lsa ham izlanishlarimiz natijasi shuni ko'rsatadiki, izofa grammatik kategoriyasida bir qancha, xususan, qaratqich va qaralmishning tartibi, bir-biriga bog'langanida o'ziga xos ma'nolar ifodalashi orqali umumiy xususiyatlarga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati:

1. N.Ibrohimov.Arab tili grammatikasi 1-qism. "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" .:T-1997;
2. M.Abdusamatov.Fors tili. "Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati.:T-2007;
3. Ю.А.Рубинчик. Грамматика современного персидского литературного языка. Издательская фирма «Восточная литература».:М-2001;
4. <https://arabic.uz/maqolalar/1584-izofaa.html>
5. <https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Izofa>